



**Abdurahmonov B. M.**

# **GEOGRAFIYA: SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH**

**USLUBIY KO'RSATMA**



**Namangan - 2017**

**Abdurahmonov B. M.**

**GEOGRAFIYA: SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI  
TASHKIL ETISH  
USLUBIY KO'RSATMA**

**Namangan - 2017**

Uslubiy ko'rsatmada oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlar va seminarlar tashkil etish, mashg'ulotlarda pedagogik maqsadlarga va aniq o'quv natijalariga erishishni ta'minlash imkonini beruvchi pedagogik-innovatsion va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari, mashg'ulotlarga qo'yiladigan tashkiliy-uslubiy talablar hamda ularning ahamiyati yoritilgan. Ko'rsatmada mashg'ulotlar tashkil etish bo'yicha uslubiy yordam beruvchi dars ishlanmalari keltirilgan.

Ushbu tavsiyalar geografiya fani o'qituvchilari, talabalar va magistr mutaxassislariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**X. Mirzaaxmedov**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

**M.Nishonov** Namangan davlat universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

**E.Soliyev** Namangan davlat universiteti  
Geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi, geografiya  
fanlari nomzodi

Namangan davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2017 yil 29.06  
kunidagi 10-sonli yig'ilish bayonnomasi qaroriga muvofiq nashr etishga ruxsat  
berilgan.

© Abdurahmonov B. M.

“Namangan”, 2017 y.



## Soʻz boshi



Bugungi kunda taʼlim tizimida asosiy eʼtibor taʼlimning sifatini oshirishga qaratilgan. Oliy taʼlimda oʻqitishning sifatini oshirish ilgʻor oʻqitish usullaridan qanday foydalanishga bogʻliq boʻlmoqda. Talabalar bilim saviyasini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusi doimo oliy taʼlim tizimida dolzarb muammolardan biri boʻlib kelgan. SHu sababli talabalar puxta va chuqur bilim hamda koʻnikmalarga ega boʻlishlari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis boʻlib yetishishlari uchun oʻqitish jarayonida axborot texnologiyalari va ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati tugʻiladi. Axborotlar va bilimlar koʻlami kengayayotgan hozirgi davrda talabalarga taʼlim berish jarayonini ularning shaxsiga yoʻnaltirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda talabalarning layoqati, ehtiyojlari, oʻziga xosliklari alohida hisobga olinib, ularni rivojlantiruvchi, yoʻnaltiruvchi oʻquv-tarbiya jarayoni tashkil etiladi.

SHu maqsadda darslarni tashkil etuvchi sifatida biz pedagoglardan talabalarning maʼruza va amaliy mashgʻulotlarda, shuningdek, mustaqil ish, referat va kurs ishi, bitiruv malakaviy ish bajarish kabi faoliyatlarida ijodiy ishchan muhitda ularning oʻquv mehnati jarayonida faol ishtirok etishlarini taʼminlashimiz talab etiladi.

Geografiya fanlari tizimidagi tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlari, jumladan, “Jaxon geografiyasi”, “SHaxarlar geografiyasi”, “Meteorologiya”, “Oʻrta Osiyo geografiyasi”, “Geografik taʼlimotlar va kashfiyotlar tarixi” kabi oʻquv fanlari mashgʻulotlari aynan geografiya fani mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatiga mos taʼlim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi.

Mazkur uslubiy tavsiyada talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ijodiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xamda ularda jamoa(guruhlar)da ishlash koʻnikmalarini shakllantiruvchi oʻquv suhbatlarini boshqarish texnologiyalari, moderatsiya (moderatorlik) tashkil etish, kartografik texnologiyalar, kommunikativ-suhbat texnologiyasi, talabalar oʻquv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi, didaktik oʻyinlar texnologiyasi, ilyustrativ-multimedia asosidagi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.



## AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMASI

**MAVZU:** Avstraliya materigi foydali qazilmalari joylashuvini o'rganish va kontur kartaga tushirish

### Mashg'ulot maqsadi:

**Ta'limiy:** Avstraliya materigida mavjud foydali qazilmalar joylashuvi to'g'risidagi ma'ruzada egallagan bilimlarini amaliy topshiriqlarni bajarash orqali mustahkamlash, geografik tasavvurni shakllantirish, oldingi mavzularda berilgan topshiriqlar yuzasidan individual, guruhlarda ishlash kabi shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni baholab borish.



**Tarbiyaviy:** Mashg'ulot davomida topshiriqlarni to'g'ri-aniq, tushungan va anglagan xolda bajarish, auditoriyada vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish, kichik guruhlarda ishlay olish qoidalariga rioya etish, talabalar fikrini eshitish va hurmat qilish, guruhlar ichida vazifalar taqsimlay olish ko'nikmalarini tarbiyalash.

**Rivoilantiruvchi:** Chet tillarini o'rganishga undash, kompyuter dasturlarida ishlay olish, ular yordamida geografik axborotlarni izlash, saralash va mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishda unumli foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

### Mashg'ulot jixozlari:

O'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, Yarim sharlar tabiiy kartasi, atlas, yozuvsiz karta, rangli qalamlar, chizg'ich, jadvallar, prezentatsiya slaydlari, internet manbalari va komp'yuter tizimi.

**Mashg'ulot davomiyligi: 2 akad. soat (80 daqiqa)**

### Mashg'ulot bosqichlari

Davomiy-  
ligi  
(vaqtni reja-  
lashtirish)

Tashkiliy davr.

**3-5 daqiqa**

Salomlashish. Xonaning mashg'ulotga tayyorgarligini nazorat qilish. Mashg'ulot uchun zarur o'qitish vositalari mavjudligini nazorat qilish. Davomatni aniqlash. Guruh jurnalini rasmiylashtirish.

Mashg'ulot mavzusi va topshiriqlarini belgilash.

**2-3 daqiqa**

Mashg'ulot topshiriqlari bajarilishi yuzasidan tushuntirish va ko'rsatmalar berish.

– Talabalar biz bugungi mashg'ulotda kichik guruhlarda

ishlaymiz. Avvalgi mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlar, jumladan, materikning umumiy geografik tavsifi, aloxida geografik ob'yektlar xususiyatlari yuzasidan tayyorlagan vazifalarni guruhlariga bo'lingan xolda bayon etamiz. Buning uchun bir tomonda joylashgan talabalar 1-guruh, ikkinchi tomondagilar 2-guruh, u tomondagi 3- guruh xamda qolganlar 4-guruh a'zolarini tashkil etadilar.

Guruhlar ichida, a'zolar o'rtasida vazifalar taqsimlanadi, tayyorlangan geografik axborotlar yuzasidan ma'lum vaqt orasida bayon etib beradilar. Reglamentimiz guruhlardagi bayonlar va prezentatsiyalar uchun 15-20 minut.

– 1-guruhga topshiriq –

Avstraliya va Okeaniyaning geografik o'rni, asosiy geografik xususiyatlari, geologik tuzilish kabi umumiy xususiyatlariga tavsif beradilar.

– 2-guruhga topshiriq –

Avstraliya materigining ichki qismidagi geografik ob'yektlar yuzasidan geografik tavsiflar beradilar.

– 3-guruhga topshiriq –

Okeaniyaning umumiy geografik xususiyatlari yuzasidan topshiriq bajaradilar.

– 4-guruhga topshiriq –

– Bugungi mavzu yuzasidan, ya'ni materik foydali qazilmalari, ularning joylashuviga tavsif berishlari hamda kontur karta chizish, amaliy ishning dastlabki natijalarini ko'rsatishlari lozim.

Agar talabalarimizda topshiriqlari yuzasidan qo'shimcha vositalari, foto lavxalar, audio-video lavxalar, prezentatsiya slaydlari mavjud bo'lsa, bizdagi markaziy ishchan kompyuterga joylashtiring va bir talabamiz bu fayllar ketma-ketligini boshqarishi lozim. Marhamat.

Topshiriqlarni bajarish barchaga aniq bo'lsa, guruhlar bo'yicha tayyorlangan ishlarni ko'rib chiqamiz.



*1-guruh o'z umumiy mavzulari yuzasidan bayon etishlari mumkin.*

*(Avstraliya materigi joylashuvi yuzasidan beriladigan axborotlari chet tillarida bayon etilish taqdirlanadi)*

**15-20  
daqqa**

*2-guruh o'z umumiy mavzulari yuzasidan bayon etishlari*

**15-20**

|  |                     |
|--|---------------------|
| <i>mumkin.</i>   | <b>daqiqa</b>       |
| <b>3-guruh o`z umumiy mavzulari yuzasidan bayon etishlari mumkin.</b>  | <b>15-20 daqiqa</b> |
| <b>4-guruh o`z umumiy mavzulari yuzasidan bayon etishlari mumkin.</b><br><i>Foydali qazilma zaxiralari va joylashuvi.<br/>Kontur kartada va komp'yuter dasturilarida chizilgan<br/>Avstraliya foydali qazilmalari joylashuvi kartasi namoyishi.</i>                                |                     |
| <i>Guruh ishini umumiy baholash.<br/>Bunda topshirqlar mazmuni, bayon eta olishi, turli ko`rgazma va kartalardan foydalanishi, amaliy ish daftarida topshiriqlarni bajarilishi sifati, mashg`ulot uchun jixozlarining mavjudligi va boshqa jixatlar o`rganiladi va baholanadi.</i> | <b>5 daqiqa</b>     |
| <b>Mashg`ulotga umumiy xulosa qilinadi.</b>  | <b>1-daqiqa</b>     |

**Jaxon geografiyasi fanidan**

## **AMALIY MASHG`ULOTINI O`QITISH TEHNOLOGIYASI**

|  |  |
|--|--|
| <b>Mavzu.</b>  | <b>Avstraliya materigi foydali qazilmalari joylashuvini o`rganish va kontur kartaga tushirish</b>  |
| <b>Vaqt - 2 soat</b>   | <b>Talabalar soni: 20-30 nafar</b>   |
| <b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>                          | <b>Amaliy ish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish,</b>  |
| <b>Amaliy mashg`ulot davomida bajariladigan topshiriqlar</b> | <b>Dunyo tabiiy kartasini tahlil qilib, Avstraliya materigida mavjud foydali qazilmalar joylashuvini aniqlash, zaxiralarni o`rganish..</b><br><br><b>Turli kartografik manbalardan foydalanib, foydali qazilmalar joylashuvini aniqlang va yozuvsiz kartada belgilang;</b> |

**O`quv mashg`ulotining maqsadi:** Avstraliya materigida mavjud foydali qazilmalar

joylashuvi to'g'risidagi ma'ruzada egallagan bilimlarini amaliy topshiriqlarni bajarash orqali mustahkamlash, geografik tasavvurni shakllantirish. Hamda oldingi mavzularda berilgan topshiriqlar yuzasidan individual, guruhlarda ishlash kabi shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni baholab borish.

Pedagogik vazifalar:

O'quv faoliyatining natijalari:

O'qituvchi:

- Avstraliya materigi joylashgan o'rnini tahlil qilishga o'rgatish;

- Okeaniyaning joylashgan o'rnini tahlil qilish jixatlarini o'rgatish;

- Karta yordamida chekka nuqtalar koordinatalarini topishni o'rgatish;

- Materikning yirik geografik ob'ektlar joylashuvini o'rgatish xamda kartada ko'rsata olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- Materik tabiatiga umumiy va xususiy geografik tavsif bera olishni o'rgatish;

- Mustaqil ish topshiriqlarini bajarish yuzasidan ko'rsatma va uslubiy yordam berish.

- Mashg'ulot davomida geografik diktant, geografik esse yozish, geografik bayon qilish, kartalar bilan ishlash, kichik guruhlarda ishlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

Talaba:

- Avstraliya materigi joylashgan o'rnini tahlil qiladi;

- Okeaniyaning joylashgan o'rnini tahlil qiladi;

-Karta yordamida chekka nuqtalar koordinatalarini topishni o'rganadi;

- Materikning yirik geografik ob'ektlar joylashuvini o'rganadi;

- Geografik ob'yektlarni kartada ko'rsata olish ko'nikmalari shakllanadi;

- Materik tabiatiga umumiy va xususiy geografik tavsif bera oladi;

- Mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda turli manbalardan unumli foydalanishni o'rganadi;

- O'zi mustaqil ishlashga ko'nikma xosil qiladi;

- Geografik diktant yoza oladi; geografik esse yoza oladi;

- Geografik bayon qilishni o'rganadi;

- Kartalar bilan ishlashni o'rganadi;

- Kichik guruhlarda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

O'qitish usullari va texnikasi

Breyn-storming, kichik guruhlarda ishlash, geografik diktant, geografik xikoya, turli adabiyotlar bilan ishlash (bosma manbalar, elektron axborot



resurslari bilan ishlash, chet tillarini o'rganishga undash (fanlararo bog'lanish)

**O'qitish vositalari**

O'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, Yarim sharlar tabiiy kartasi, atlas, yozuvsiz karta, rangli qalamlar, chizg'ich, jadvallar, prezentatsiya, internet manbalari va videofayllar.

**O'qitish shakli**

Amaliy mashg'ulot.  
Individual so'rov, kichik guruhlarda va juftliklarda ishlash

**O'qitish sharoitlari**

Namunadagi auditoriya.

**Monitoring va baholash**

Og'zaki (individual)so'rov, kichik guruhlarda ishlay olishi, turli manbalardan unumli foydalana olishi, kontur kartada amaly ish bajarishi kabi. Natijalar tekshiriladi va baholanadi.



**“Jaxon geografiyasi” fanidan**  
**“Italiya xo‘jalik tarmoqlarini yozuvsiz kartaga tushirish.**  
**Italiya yirik kompaniyalari va konsernlari” mavzuidagi**  
**DARS ISHLANMASI**  
**(amaliy mashg‘ulot)**

**O‘quv ta‘limiy vositalar:** fan bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua, atlaslar, ma‘lumotnomalar, yozuvsiz kartalar, mavzuli bosma va elektron geografik kartalar, multimedia proyektori, ovoz kalonkalari, tarqatma materiallar, “Seterra 2.2” elektron geografik dasturi, Pinvand namoyish doskasi, kartochkalar, markerlar.

**Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:**

- Kompyuter texnologiyasi, interaktiv illyustrativ multimedia metodi;
- Interaktiv metod, Baxs-munozara metodi, “Breynstorming” metodi, “SWOT tahlil” metodi.

**Tashkiliy bosqich**

Talabalar bilan salomlashish. O‘quv xonasi va o‘quv jixozlari tayyorgarligi hamda davomatni nazorat qilish.

“Guruhda xarorat”. Mashg‘ulot avvalida guruh talabalarining mashg‘ulotga tashkiliy-psixologik tayyorgarligini aniqlash va baholash

**O‘quv maqsadlarni belgilab olish**

**Maqsad:** Italiyaning tabiiy va iqtisodiy geografik o‘rni tabiiy sharoiti va resurslariga xo‘jalik nuqtai nazaridan umumiy baho berish, geografik o‘rning qulay va noqulay tomonlari, tabiiy resurslarining mamlakat hududida joylashganligi xususiyatlarini aniqlash, statistik ma‘lumotlardan foydalanish va sxemalarni tuzishni o‘rgatish. Talabalarni Italiya xo‘jaligining tarmoqlari, xo‘jalik turlari, sanoat va qishloq xo‘jalik tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish xolati, hududiy joylashuvi va taraqqiyot darajasi bilan tanishtirish.



Mashg‘ulot mavzusini ma‘lum qilish. Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.

**1-vazifa.** Tavsiya etilgan adabiyotlar, karta va atlaslardan foydalangan holda Italiyaning iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.



**2-vazifa.** Jadval ma'lumotidan foydalanib, Italiya sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rnini belgilang. Yetakchi sanoat tarmoqlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlang va qisqacha tavsif bering.

**3-vazifa.** Manbalardan foydalanib, Italiya xo'jalik tarmoqlarini yozuvsiz kartaga belgilang va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini qisqacha tavsiflang

**Umumiy tabiiy, iqtisodiy geografik tavsif uchun videofayl namoyish qilish.**

"Italiya haqiga qiziqarli faktlar" mavzuidagi videofayl namoyishi

**"Breynstorming" – umumiy savol o'rtaga tashlanadi.**

**! •"Italiya xo'jaligi barqarorligiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?"**

"SWOT tahlil" metodidan foydalanib, quyidagi savollar beriladi.

**Ichki omillar:**

**S – Strengths Italiya** Xo'jaligining kuchli tomonlari-nimada?

**W– Weaknesses Italiya** Xo'jaligining kuchsiz tomonlari nimada?

**Tashqi omillar:**

**O – Opportunities Italiya** Xo'jaligi rivojida imkoniyatlari qanday?

**T – Threats Italiya** Xo'jaligi rivojida qanday xavflar mavjud?

**SWOT (SWOT-tahlil) Metodi**

Abbreviatura **SWOT** inglizcha so'zlar birikmasidan: strengths, weaknesses, opportunities, threats so'zlaridan xosil bo'lgan.

**STRENGTHS** – ijobiy tomonlar,

**WEAKNESSES** – negativ-salbiy tomonlar;


**OPPORTUNITIES** – potensial imkoniyatlar;

**THREATS** – potensial xavf-xatarlar

Metod tavsifini quyidagi jadval asosida berish mumkin:

|                     | <b>Ijobiy omillar</b>   | <b>Salbiy (negativ) omillar</b>  |
|---------------------|---|--|
| <b>Ichki muxit</b>  | <b>Kuchli tomonlar - Strengths</b><br>(xo'jaligining ustun, kuchli jixatlari)   | <b>Kuchsiz tomonlar - Weaknesses</b><br>(xo'jaligining oqsoq, kuchsiz jixatlari)   |
| <b>Tashqi muxit</b> | <b>Imkoniyatlar - Opportunities</b><br>(maqsadga erishish uchun yordam beruvchi tashqi potensial imkoniyatlar, omillar) | <b>Xavf-xatarlar - Threats</b> (maqsadga erishishda xalal berishi mumkin bo'lgan tashqi potensial xavf-xatarlar, omillar,) |

Talabalar fikri kartochkalarga yozilib PINVAND tablosida jamlanadi



Guruh a'zolariga topshiriqlarni bajarish yuzasidan tarqatma materiallar berilib, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratiladi.

**Guruh ishi taqdimotlari.** “SWOT tahlil” natijasi.

Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan ma'lumotlarni to'playdilar, jamlaydilar va topshiriqlar yuzasidan taqdimot o'tkazadilar

Guruh ishi o'raginb chiqiladi va baholanadi.

Mashg'ulot yakunida guruh talabalarining mashg'ulotda o'zlashtirgan bilimlari, tashkiliy-psixologik tayyorgarligi bo'yicha xolat aniqlanadi va baholanadi. Bunda "Guruhda xarorat" panosidan foydalaniladi.

**Talabalarga mustaqil ish mavzusi:** "Italiya va O'zbekiston o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari" mavzuida kichik ma'ruza tayyorlash.

### Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

**Mavzu: "Italiya xo'jalik tarmoqlarini yozuvsiz kartaga tushirish.  
Italiya yirik kompaniyalari va konsernlari "**  
**Ajratilgan akademik soat - 2**

| №  | Ta'lim jarayoni bosqichi nomi                    | Jarayon xarakatlari va mazmunlari<br>Tavsifi  | Taxminiy belgilangan vaqt (daqiq) |
|----|--|---|-----------------------------------|
| I  | <b>Tashkiliy Bosqich</b>                         | Talabalar bilan salomlashish. O'quv xonasi va o'quv jixozlar tayyorgarligini hamda davomatni nazorat qilish.<br>"Guruhda xarorat" mashg'ulot avvalida guruh talabalarining mashg'ulotga tashkiliy-psixologik tayyorgarligini aniqlash va baholash   | 5-7                               |
| II | <b>O'quv maqsadlarni belgilab olish bosqichi</b> | Mashg'ulot mavzusini ma'lum qilish. Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.<br><b>1-vazifa.</b> Tavsiya etilgan adabiyotlar, karta va atlaslardan foydalangan holda Italiyaning iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.<br><b>2-vazifa.</b> Jadval ma'lumotidan foydalanib, Italiya sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rnini belgilang. Yetakchi sanoat tarmoqlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlang va qisqacha tavsif bering. | 5-7                               |

|     |  |  |                         |
|-----|--|--|-------------------------|
|     |  | <p><b>3-vazifa.</b> Manbalardan foydalanib, Italiya xo'jalik tarmoqlarini yozuvsiz kartaga belgilang va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini qisqacha tavsiflang</p> <p><b><u>Ta'limiy maqsadlar:</u></b></p> <p>Italiyaning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik nuqtai nazaridan umumiy baho berish, geografik o'rning qulay va noqulay tomonlari, tabiiy resurslarining mamlakat hududida joylashganligi xususiyatlarini aniqlash, statistik ma'lumotlardan foydalanish va sxemalarni tuzishni o'rgatish. Talabalarni Italiya xo'jaligining tarmoqlari, xo'jalik turlari, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish xolati, hududiy joylashuvi va taraqqiyot darajasi bilan tanishtirish. Uning eksport-import imkoniyatlarini baholash, yozuvsiz kartada chiziluvchi ob'ekt va mazmunlarni aniqlash.</p> <p><b><u>Tarbiyaviy maqsadlar:</u></b></p> <p>Ta'limiy o'quv baxs-munozaralarda o'zini tuta bilish, kichik guruhdagi talabalar fikrini eshitish ko'nikma va malakalari shakllanadi.</p> <p><b><u>Rivojlantiruvchi maqsadlar:</u></b></p> <p>Elektron kartalar va elektron darsliklar, dasturlar bilan ishlay olish, axborotlar qidira olish va saralash, mustaqil ijodiy ishlash, fikr ayta olish, guruhlarda ishlash kabi ko'nikma va malakalari rivojlanadi</p> |                         |
| III | <p><b>"Breynstorming"</b><br/>bosqichi</p> | <p>"Italiya xaqiga qiziqarli faktlar" videofayl namoyishi</p> <p>"Italiya xo'jaligi barqarorligiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?"</p> <p>"SWOT tahlil" metodidan foydalanib, quyidagi savollar beriladi.</p> <p><b><u>Ichki omillar:</u></b></p> <p><b>S – Strengths</b> – Xo'jaligining kuchli tomonlari nimada?</p> <p><b>W – Weaknesses</b> – Xo'jaligining kuchsiz tomonlari nimada?</p>   | <p>5-7</p> <p>15-20</p> |

|    |   |  |  |
|----|---|--|--|
|    |   | <p style="text-align: center;"><u>Tashqi omillar:</u></p> <p><b>O – Opportunities</b> – Xo'jaligi rivojida imkoniyatlari qanday?</p> <p><b>T – Threats</b> – Xo'jaligi rivojida qanday xavflar mavjud?</p> <p>Moderator sifatida baxs-munozalarni boshqarish.</p> <p>Pinvand doska va kartochkalar yordamida umumiy savol yuzasidan talabalar fikrlarini jamlash va tartiblash</p> <p>Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, aloxida savollarga tayyorgarlik ko'radilar.</p> |  |
| IV | Taqdimot qilish bosqichi  | <p>“SWOT tahlil”. Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan ma'lumotlarni to'playdilar, jamlaydilar va topshiriqlar yuzasidan taqdimot o'tkazadilar.</p> <p>Moderator sifatida suxbat va namoyishni boshqarish</p>   | <p>25-30</p> <p>Xar bir kichik guruh uchun 5-7</p> |
| V  | Xulosalash, guruhlar bajargan topshiriqlar va taqdimotlarni baholash bosqichi | Xar bir guruh topshiriqlarini umumiy xulosalar, baholash, taklif va tavsiyalar berish.   | 5  |
| VI | Yakuniy bosqich   | “Guruhda xarorat” mashg'ulot yakunida guruh talabalarining mashg'ulotda o'zlashtirgan bilimlari, tashkiliy- psixologik tayyorgarligi bo'yicha xolatni aniqlash va baholash   | 5-7  |



**“Shaxarlar geografiyasi” fanidan  
“Jaxon poytaxt shaxarlarini o‘rganish va kartada  
belgilash”  
mavzuidagi amaliy mashg‘ulot  
DARS ISHLANMASI**

**Ta‘lim vositalari:** fan bo‘yicha qo‘llanmalar, atlas, ma‘lumotnomalar, yozuvsiz kartalar, geografik kartalar, multimedia proyektori, tarqatma materiallar, “Seterra” dasturi.

**Qo‘llaniladigan ta‘lim texnologiyalari:**

Kompyuter texnologiyalari, kichik guruhlarda ishlash metodi, aqliy xujum.

**Tashkiliy davr**

Talabalar bilan salomlashish. O‘quv xonasi va o‘quv jixozlari tayyorgarligi hamda davomatni nazorat qilish.

**O‘quv maqsadlarni belgilab olish davri**

**Maqsad:** Talabalar davlatlarning poytaxtlari geografik nomlari, ularning geografik joylashuvi va koordinatalarini aniqlay olishi va o‘rganishi lozim, kichik guruhda faol ishlashga o‘rgatish, kompyuter dasturlaridan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish.



Mashg‘ulot mavzusini ma‘lum qilish. Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.

**1-Amaliy topshiriq.** Tegishli adabiyotlar, geografik karta va atlaslardan foydalanib, mintaqalarning siyosiy kartalarini tahlil qilish.

**2-Amaliy topshiriq.** Davlatlar poytaxtlarining geografik joylashuvini o‘rganish.

**3-Amaliy topshiriq.** Yozuvsiz kartaga davlatlar poytaxtlari belgilang va ularga qisqacha tavsif bering.



6 ta kichik guruh shakllantiriladi.

Guruhlarga topshiriq:

1. Osiyo siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o‘rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.

2. Yevropa siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o‘rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.

3. Shimoliy Amerika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o‘rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.

4. Janubiy Amerika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o‘rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.



5. Afrika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.

6. Avstraliya va Okeaniya siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.

Guruh a'zolariga topshiriqlarni bajarish yuzasidan tarqatma materiallar berilib, tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt ajratiladi.

### **Guruh ishi taqdimotlari.**

Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan taqdimot o'tkazadilar.

Xar bir guruhda ikki nafar talaba "Seterra" dasturidagi poytaxtlar sinov kartografik topshiriqlarini bajaradilar.




Guruhlar bajargan ishlar o'rganib chiqiladi va baholanadi.

**Talabalarga mustaqil ish mavzusini berish:** "Dunyo poytaxtlari" mavzuida taqdimot slaydlari tayyorlash.

## Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi

**Mavzu: "Jaxon poytaxt shaxarlarini o'rganish va kartada belgilash"**  
**Ajratilgan akademik soat – 2**

| t/r        | Bosqich nomi  | Jarayon tavsifi  | Vaqt (daqqa) |
|------------|---|--|--------------|
| <b>I</b>   | <b>Tashkiliy davr</b>   | Talabalar bilan salomlashish. O'quv xonasi va o'quv jixozlar tayyorgarligini hamda davomatni nazorat qilish.   | 3-5          |
| <b>II</b>  | <p style="text-align: center;"><b>Topshiriqlarni aniqlash</b></p>  | <p>Mashg'ulot mavzusini ma'lum qilish. Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.</p> <p><b>1-Amaliy topshiriq.</b> Tegishli adabiyotlar, geografik karta va atlaslardan foydalanib, mintaqalarning siyosiy kartalarini tahlil qilish.</p> <p><b>2-Amaliy topshiriq.</b> Davlatlar poytaxtlarining geografik joylashuvini o'rganish.</p> <p><b>3-Amaliy topshiriq.</b> Yozuvsiz kartaga davlatlar poytaxtlari belgilang va ularga qisqacha tavsif bering.</p> <p><b>Ta'limiy maqsadlar:</b> talabalar davlatlarning poytaxtlari geografik nomlari, ularning geografik joylashuvi va koordinatalarini aniqlay olishi va o'rganishi lozim, kichik guruhda faol ishlashga o'rgatish, kompyuter dasturlaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p>Ta'limiy o'quv baxs-munozaralarda o'zini tuta bilish, kichik guruhdagi talabalar fikrini eshitish ko'nikma va malakalari shakllanadi.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi maqsadlar:</b><br/>Elektron kartalar va elektron darsliklar, dasturlar bilan ishlay olish, guruhlarda ishlash kabi ko'nikma va malakalari rivojlanadi</p> | 5-7          |
| <b>III</b> | <b>Kichik guruhlarga shakllantirish bosqichi</b>  | <p>6 ta kichik guruh shakllantiriladi.</p> <p><b>Guruhlarga topshiriq:</b><br/>1. Osiyo siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Dorskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p>   |              |



|    |                                      |   |       |
|----|--------------------------------------|---|-------|
|    |                                      | <p>2. Yevropa siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p> <p>3. Shimoliy Amerika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p> <p>4. Janubiy Amerika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p> <p>5. Afrika siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p> <p>6. Avstraliya va Okeaniya siyosiy kartasini tahlil qilib, davlatlar poytaxtlari joylashuvini o'rganish. Duskada mintaqa konturini chizib, poytaxtlar joylashtiriladi.</p> <p>Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, aloxida topshiriqlarga tayyorgarlik ko'radilar.</p> | 15-20 |
| IV | <b>Taqdimot qilish bosqichi</b>      | <p>Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan taqdimot o'tkazadilar.</p>   | 35-40 |
| V  | <b>Xulosalash, baholash bosqichi</b> | <p>Xar bir guruh topshiriqlarini umumiy xulosalash, baholash, taklif va tavsiyalar berish.</p>  | 5     |



**“O`rta Osiyo geografiyasi” fanidan**  
**“O`rta Osiyo davlatlari xo`jaligi qiyosiy tavsifi”**  
**mavzuidagi**  
**DARS ISHLANMASI**  
**(amaliy mashg`ulot)**

**O`quv ta`limiy vositalar:** fan bo`yicha o`quv-uslubiy majmua, atlaslar, ma`lumotnomalar, yozuvsiz kartalar, mavzuli bosma va elektron geografik kartalar, multimedia proyektori, ovoz kalonkalari, tarqatma materiallar, Pinvand namoyish doskasi, kartochkalar, markerlar.

**Mashg`ulotda qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalari:**

Kompyuter texnologiyasi, interaktiv illyustrativ multimedia metodi, o`quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi, Baxs-munozara metodi, “Breyntstorming” metodi

**Tashkiliy bosqich**

Talabalar bilan salomlashish. O`quv xonasi va o`quv jixozlari tayyorgarligi hamda davomatni nazorat qilish.

“Guruhda xarorat”. Mashg`ulot avvalida guruh talabalarining mashg`ulotga tashkiliy-psixologik tayyorgarligini aniqlash va baholash

**O`quv maqsadlarni belgilab olish**

**Maqsad:** O`rta Osiyo davlatlari ning tabiiy va iqtisodiy geografik o`rni, tabiiy sharoiti va resurslariga xo`jalik nuqtai nazaridan umumiy baho berish, geografik o`rning qulay va noqulay tomonlari, tabiiy resurslarining mamlakat hududida joylashganligi xususiyatlarini aniqlash, statistik ma`lumotlardan foydalanish va sxemalarni tuzishni o`rgatish. Talabalarni mintaqa xo`jaligining tarmoqlari, sanoat va qishloq xo`jalik tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish xolati, hududiy joylashuvi va taraqqiyot darajasi bilan tanishtirish.



**Mashg`ulot mavzusini ma`lum qilish.** Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.

**1-Topshiriq.** Tavsiya etilgan adabiyotlar, karta va atlaslardan foydalangan holda, O`rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o`rniga baho bering.

**2-Topshiriq.** O`rta Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishiga tavsif bering.



**3-Topshiriq.** Manbalardan foydalanib, O' rta Osiyo davlatlari xo'jaligi kartasini chizing.

Guruh a'zolari tarkibini shakllantirish va guruh a'zolari ishini taqsimlash amalga oshiriladi.

- 1- Sardor (guruh a'zolari ishini taqsimlaydi va nazorat qiladi)
- 2- Geograf (tegishli ma'lumotlar beradi)
- 3- Demograf (tegishli ma'lumotlar beradi)
- 4- Kartograf (mavzuli karta, rarta-sxema chizadi)
- 5- Geograf (test sinovida ishtirok etadi)
- 6- Mutaxassis (axborotlar to'playdi va a'zolarga taqdim etadi)

Xar bir guruh umumiy **50 ball** to'plashi lozim.

Kartograf – 10 ; Geograf (test)- 10:

Geograflar -10 ; Demograf -10 ;

Mutaxassis – 10.

**Umumiy tabiiy, iqtisodiy geografik tavsif uchun videofayl namoyish qilish.** Mintaqa davlatlari xaqida qiziqarli faktlar beruvchi videofayllar namoyishi.

**"Breynstorming"** – umumiy savol o'rtaga tashlanadi.


**O' RTA OSIYO: TABIATI, AXOLISI, XO'JALIGI**

**Tizimida ish bajaramiz !!!**


**! "Mintaqa davlatlari xo'jaligiga qanday omillar ta'sir etadi ?"**

Talabalar fikri kartochnalarga yozilib PINVAND tablosida jamlanadi

Avval umumiy javoblar jamlanadi



## So'ng javoblar saralanadi



Guruh a'zolariga topshiriqlarni bajarish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar beriladi.

### Qiyosiy tahlil

Turkmaniston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi geografiyasi bo'yicha 2 tadan guruh ish bajaradi.

Guruhlar mamlakatlarning umumiy geografik, demografik, kartografik masalalar bo'yicha ish bajaradilar.

1-guruh va 2-guruh:

Turkmaniston Respublikasi geografiyasi

Geograflar. Demograf. Kartograf.

3-guruh va 4-guruh:

Qirg'iziston Respublikasi geografiyasi

Geograflar. Demograf. Kartograf.

### Guruh ishi taqdimotlari.

Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan ma'lumotlarni to'playdilar, jamlaydilar va topshiriqlar yuzasidan taqdimot o'tkazadilar.

**Xar bir guruhdan soxa vakillari o'z chiqishlarini qiladi:**

**Geograf** guruhga berilgan tegishli topshiriqlar yuzasidan ma'lumotlar beradi.


**Demograf** guruhga berilgan tegishli topshiriqlar yuzasidan ma'lumotlar beradi.

**Kartograf** (chizgan mavzuli kartasi, karta-sxemani taqdim qiladi)

**Geograf** (mavzular yuzasidan test sinovida ishtirok etadi)

**Venn diagrammasida**

2 davlat umumiy va aloxida omillari xisobga olinadi



### **Guruh ishi o'rganib chiqiladi va baholanadi.**

Mashg'ulot yakunida guruh talabalarining mashg'ulotda o'zlashtirgan bilimlari, psixologik xolat aniqlanadi va baholanadi. Bunda "Guruhda xarorat" panosidan foydalaniladi.

**Talabalarga mustaqil ish mavzusi:** "Mintaqa davlatlarining xalqaro tashkilotlarga a'zoligi" mavzuida kichik ma'ruza tayyorlash.


**Amaliy mashg'ulot texnologik kartasi**  
**Fan: "O'rta Osiyo geografiyasi"**  
**Mavzu: "O'rta Osiyo davlatlari xo'jaligi qiyosiy tavsifi"**  
**Ajratilgan akademik soat – 2**

| №  | Ta'lim jarayoni bosqichi nomi                    | Jarayon xarakatlari va mazmunlari Tavsifi  | Taxminiy belgilangan vaqt (daqiqqa) |
|----|--|--|-------------------------------------|
| I  | <b>Tashkiliy bosqich</b>                         | <p>Talabalar bilan salomlashish. O'quv xonasi va o'quv jixozlar tayyorgarligini hamda talabalar davomatini nazorat qilish. Guruh jurnalini yuritish.</p> <p>"Guruhda xarorat" mashg'ulot avvalida guruh talabalarining mashg'ulotga tashkiliy-psixologik tayyorgarligini aniqlash va baholash.</p>   | 5-7                                 |
| II | <b>O'quv maqsadlarni belgilab olish bosqichi</b> | <p>Mashg'ulot mavzusini ma'lum qilish. Bajariladigan topshiriqlarni belgilash va bajarish tartibi bilan tanishtirish.</p> <p><b>1-Topshiriq.</b> Tavsiya etilgan adabiyotlar, karta va atlalardan foydalangan holda O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.</p> <p><b>2-Topshiriq.</b> O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiyotining rivojlanishiga tavsif bering.</p> <p><b>3-Topshiriq.</b> Manbalardan foydalanib, O'rta Osiyo davlatlari xo'jaligi kartasini chizing.</p> <p><b><u>Ta'limiy maqsadlar:</u></b></p> <p>O'rta Osiyoning tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik nuqtal nazaridan umumiy baho berish, geografik o'rning qulay va noqulay tomonlari, tabiiy resurslarining mamlakat hududida joylashganligi xususiyatlarini aniqlash, statistik ma'lumotlardan foydalanish. Talabalarni mintaqa davlatlari xo'jaligi tarmoqlari, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish xolati, hududiy joylashuvi va taraqqiyot darajasi bilan tanishtirish. Uning eksport-import imkoniyatlarini baholash, yozuvsiz kartada chiziluvchi ob'ekt va mazmunlarni aniqlash.</p> <p><b><u>Tarbiyaviy maqsadlar:</u></b></p> <p>Ta'limiy o'quv baxs-munozaralarda o'zini tuta bilish, kichik guruhdagi talabalar fikrini</p> | 5-7                                 |



|     |   |   |  |
|-----|---|---|--|
|     |   | <p>eshitish ko'nikma va malakalari shakllanadi.</p> <p><b><u>Rivojlantiruvchi maqsadlar:</u></b></p> <p>Elektron kartalar va elektron darsliklar, dasturlar bilan ishlay olish, axborotlar qidira olish va saralash, mustaqil ijodiy ishlash, fikr ayta olish, guruhlarda ishlash kabi ko'nikma va malakalari rivojlanadi.</p>  |  |
| III | "Breynstorming" bosqichi  | <p>Mintaqa davlatlari xaqiga qiziqarli faktlar beruvchi videofayllar namoyishi.</p> <p><b><u>! "Mintaqa davlatlari xo'jaligiga qandav omillar ta'sir etadi?"</u></b></p> <p>Moderator sifatida baxs-munozalarni boshqarish.</p> <p>Pinvand doska va kartochkalar yordamida umumiy savol yuzasidan talabalar fikrlarini jamlash va tartiblash.</p> <p>Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, aloxida topshiriqlarga tayyorgarlik ko'radilar.</p> | <p>15-20</p> <p>5-10</p>                           |
| IV  | Taqdimot qilish bosqichi  | <p>Kichik guruh a'zolari belgilangan topshiriq yuzasidan ma'lumotlarni to'playdilar, jamlaydilar va topshiriqlar yuzasidan taqdimot o'tkazadilar.</p> <p>Moderator sifatida suxbat va namoyishni boshqarish</p>   | <p>25-30</p> <p>Xar bir kichik guruh uchun 5-7</p> |
| V   | Xulosalash, guruhlar bajargan topshiriqlar va taqdimotlarni baholash bosqichi | <p>Venn diagrammasi yordamida davlatlar iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi umumiy va aloxida omillar ajratiladi.</p> <p>Xar bir guruh topshiriqlarini umumiy xulosalash, baholash, taklif va tavsiyalar berish.</p>  | 5  |
| VI  | Yakuniy bosqich   | <p>"Guruhda xarorat" mashg'ulot yakunida guruh talabalarining mashg'ulotda o'zlashtirgan bilimlari, tashkiliy-psixologik xolatini aniqlash va baholash</p>  | 5-7  |

«Baliq skeleti» metodi



I-chizma

**«Baliq skeleti» metodini samarali amalga oshirish qadamlari**

Har bir ishtirokchi erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. Mustaqil fikr va g'oyalarni yozish uchun kerakli doska, yumshoq doska, flipchart, rangli markerlar, posterlar, kodoskop va turli formatdagi qog'ozlar oldindan tayyorlanishi lozim. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi.

**Ish qoidalarini belgilash kerak:**

- a) berilgan g'oyalar baxolanmaydi;
- b) fikrlashga to'liq erkinlik beriladi;
- v) berilayotgan g'oyalar miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;
- g) «o'ylang», «ilib oling» va boshka g'oyalarga asoslanish kerak;
- d) mustaqil fikr va goyalar to'g'risida so'rash va mag'zini chaqirish kerak;
- e) mavzu asosida berilgan g'oyalarni yozib, ko'rinadigan joyga ilib qo'yish zarur;
- j) berilgan yangi g'oyalarni yanada to'ldirib, qatnashchilar rag'batlantirilishi lozim;
- z) qatnashchilar g'oyalari ustidan kulish, kinoyalari sharhlar va mayna qilishlarga yo'l qo'yilmasligi shart;
- i) yangi-yangi g'oyalar tug'ilayotgan ekan, demak ishini davom ettirish kerak.


**«Sinkveyn» metodini samarali amalga oshirish qadamlari**

Har bir ishtirokchi erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. Mustaqil fikr va g'oyalarni yozish uchun kerakli doska, yumshoq doska, rangli markerlar, posterlar, kodoskop, turli formatdagi qog'ozlar oldindan tayyorlanishi lozim. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi

**Sinkveyn tuzish qoidasi:**

1. Birinchi qatorda topshiriq bir so'z, odatda ot bilan ifodalanadi (Kim? Nima?)
2. Ikkinchi qatarga mavzuga oid ikkita sifat yoziladi (Qanday? Qanaqa?)
3. Uchinchi qatorda mavzu doirasidagi xatti-harakat vazifasini anglatuvchi uchta so'z fe'llar bilan ifodalanadi.
4. To'rtinchi qatarga mavzuga nisbatan tasavvur (assotsiatsiyasi)ni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr (sezgi) yoziladi.
5. Oxirgi qatarga mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga o'xshash bo'lgan bitta so'z (sinonim) yoziladi.

2-chizma




3-chizma

**B. «Sinkveyn» metodi**

**"Yozma yumaloq stol" metodi asosida ishlash qoidalari**

1. Birgalikda o'rganish usuliga asoslanadi.
2. Qog'oz va har xil rangdagi qalamlar kerak bo'ladi.
3. Guruh a'zolari atrofida qog'oz va qalam surilib boriladi.
4. Ishtirokchilardan bittasi o'rta tashlangan masalaga oid fikrini yozadi.
5. Guruhdoshiga uzatadi.
6. U ham o'z fikrini boshqa rangdagi qalamda yozib keyingi ishtirokchiga beradi;
7. Ranglar turli bulishi har bir ishtirokchining shaxsiy fikrini, masala yuzasidan ishtirokini aniqlash uchun kerak bo'ladi.
8. Fikrlar jamlanib, muhokama qilinib muammoning yechimi topiladi.



4-chizma

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonov M., Abduraxmonov B. Tabiiy geografiya: Qiziqarli dars shakllari. 2000 y, «Namangan» 4-5, 16-21 betlar.

2. Abduraxmonov B.M. Geografik madaniyatni shakllantirishda axborotni ifodalovchi tasviriy ko'rsatmalardan foydalanish // Fan, ta'lim, madaniyat va biznes soxalarida Internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, Toshkent –Samarqand. 2004. 207- 208 betlar.

3. Душина И.В. Педагогические технологии обучения географии. «География в школе» -2001. -№3 –стр. 49-53.

4. С.А.Микитенко. Методика применения интерактивных аудиовизуальных средств обучения на уроках географии (6 класс) : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.02 Н. Новгород, 2006 193 с. РГБ ОД, 61:07-13/758

5. Филатова Н.Б. Компьютер на уроке географии. География в школе. 2001 №2 -стр.51

Internet saxifalari:

<http://www.dslib.net>

[www.geo-mes.ru](http://www.geo-mes.ru)

[www.curator.ru](http://www.curator.ru)

## MUNDARIJA

|   |           |
|---|-----------|
| <b>Kirish.....</b>                          | <b>3</b>  |
| <b>Amaliy mashg'ulot ishlanmalari .....</b> | <b>4</b>  |
| <b>Grafik organayzerlar. ....</b>           | <b>25</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>      | <b>28</b> |

**Abduraxmonov Botirjon Mirzamaxmudovich**

**GEOGRAFIYA: SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI  
TASHKIL ETISH**

**(USLUBIY KO'RSATMA)**

**Mas'ul muharrir:**

**Mirzaaxmedov X.**

**Texnik muharrir:**

**Makulov J.**

Nashrga ruxsat 20.06.2017 yilda berildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 1.5 bosma taboq. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

